

## REGIOLEKT

**Ravshanova Feruza Murodullayevna**

*O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va*

*folklori instituti ilmiy xodimi*

[ravshanovaf24@gmail.com](mailto:ravshanovaf24@gmail.com)

+998 90 997 80 02

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada sotsiolingvistika sohasining yangi atamalaridan biri bo‘lgan regiolekt haqida so‘z boradi. So‘zlashuvchilarning muloqot jarayonida adabiy til va shevaga oid so‘zlarini qo‘llashi hamda shevaga xos talaffuz qilishi kabi til ko‘rinishi regiolekt atamasi ostida o‘rganilishiga oid fikr-mulohazalar yuritildi.

**Annotation:** This article will talk about regiolect, one of the new terms of the field of sociolinguistics. Feedback has been made regarding the language appearance being studied under the term regiolect, such as speakers use of literary language and dialect-specific words in the dialogue process and their dialect-specific pronunciation.

**Key words:** language, regional language, regiolect, literary language, dialect, communication, language situation, living form of language

**Kalit so‘zlar:** til, mintaqaviy til, regiolekt, adabiy til, sheva, muloqot, til vaziyati, tilning yashash shakli.

Sotsiolingvistikada regiolekt atamasi yangi atamalardan biri bo‘lib, kichik va uncha katta bo‘lmagan shahar aholisi tiliga nisbatan qo‘llanadi. Regiolektidan shahar aholisining ziyoli qatlami hamda muassasa xodimlari kundalik ehtiyojlari uchun og‘zaki muloqotda foydalanadi. So‘zlashuvchilar nutqida mahalliy sheva va oddiy so‘zlashuv nutqiga xos jihatlar uchrashi regiolektning asosiy xarakterli xususiyatidir. Aynan shahar aholisining nutqiga ko‘ra, regiolekt atamasi qo‘llanishiga sabab shahar hududining qishloq hududidan katta ekanligi, asosan shahar aholisi ziyoli qatlam vakillari, muassasa xodimlaridan tarkib topganligidir.

O‘zbek tilida mintaqaviy til tarzida ifodalanadigan ayni atama dastlab fransuz dialektologlari tadqiqotlarida qo‘llana boshlaydi. Ular jamiyatning ijtimoiy-madaniy darajasini aniqlash maqsadida mintaqaviy til tiplarini tadqiq qiladi.<sup>1</sup>

Regiolekt atamasi lotincha *region, regions – viloyat, o‘lka, hudud, lectus – til* ya’ni viloyat tili degan ma’nomalarni bildirib, XX asr o‘rtalarida fransuz tilshunosligida adabiy tilga ham, xalq shevasiga ham mos kelmaydigan oraliq tilni ifodalashda qo‘llana boshlagan. Tilning bu jihatiga ko‘ra “mintaqaviy fransuz tili” (français regional) va “fransuz tilining mintaqaviy tiplari” (français régionaux) kabi atamalar

<sup>1</sup> Хорошева, Н.В. Региолект как промежуточный идиом во французском и русском языках / Н.В. Хорошева// Вестник Пермского университета. Российская и зарубежная филология. – 2011. – Вып. 3 (15). – С. 31.

ilmiy adabiyotlarda keltirilgan<sup>2</sup>. Sotsiolingvistikada ba'zi terminlar tildan foydalanish xususiyatlariga ko'ra o'xshash va farqlidir. Regiolekt hamda regional til (mintaqaviy til) atamalarining ayrim jihatlari biri-biriga yaqinligi sababli bu atamalar tilshunoslar orasida ko'plab muhokamalarga uchraydi. Olimlar mintaqaviy til qo'llanishi jihatidan beqarorligi hamda uzluksiz tabiatga ega ekanligi bilan ajralib turishini ta'kidlashgan.

Fransuz tilshunosligidagi “mintaqaviy til” termini rus tilshunosligida “regiolekt” termini qo'llanadi. Tadqiqotlarda atamalarni sinonim tarzda qo'llanishi, noqulaylik hamda tushunishdagi qiyinchilikni keltirib chiqaradi. Shu sababli, o'zbek tilshunosligida ham regiolekt atamasidan foydalanishni maqbul deb bildik.

Fransuz tilshunosligida “mintaqaviy til” atamasining qo'llanilishi bilan bog'liq turli mulohazalar mavjud. Masalan, olim G.Tyuayon “mintaqaviy til” atamasidan foydalanishni ma'qullamaydi va fransuz tilining mahalliy til xususiyatlari hech qayerda yagona tizimni tashkil etmaydi. Mintaqaviy fransuz tili hech qayirda mavjud emas va hech kim so'zlashmaydi.<sup>3</sup> Ayni paytda bu olim alohida regionalizmlarni tan oladi. Parij tiliga mutlaqo mos kelmaydigan, doimiy bo'lmagan noadabiy qo'llanishlarni regionalizmlar, deb tushunadi. G.Tyuayon mintaqaviy til tushunchasini ma'qullamasa ham ko'pincha fransuz tilining parij variantiga mos kelmaydigan, muntazam bo'lmagan noadabiy qo'llanishlarini regionalizmlar, deb ataydi. Ya'ni muayyan regionga xos til qo'llashlar deb tushunadi.

O.Bren “rasmiy muloqotda fransuz tili bilan Provans, Pikar, Lotaringiya dialektlarining o'rtasida o'ziga xos bir til rivojlanmoqda, uning nomi mintaqaviy fransuz tilidir”<sup>4</sup>, deb fikr bildirgan edi. Bundan anglashiladiki, regiolekt rasmiy muloqot doiralariga kirib borayotganini taxmin qilish mumkin. Bu haqida tilshunos Y.Odilov quyidagicha fikr bildiradi. Ayrim regional tillar keyinchalik til egalarining faolligi sababli qo'llanish va qamrov doirasini kengaytirishi, rasmiy til maqomini olishi mumkin. Masalan, katalon tili shunday yo'lni bosib o'tgan, hozir u Ispaniyaning Kataloniya muxtor viloyatida ispan tili bilan birga rasmiy til sifatida qo'llaniladi.<sup>5</sup>

Yuqoridagi regiolekt, regional til haqidagi ma'lumotlarning tahlilidan fransuz tilshunosligida “mintaqaviy til” atamasi bilan bog'liq til hodisalari farqlanmaganligi, tilshunoslar o'rtasida bu atamaga xos aniq bir qarashning yo'qligini ilg'ash mumkin.

Regiolektga oid tadqiqotlar dastlab fransuz tilshunosligida tadqiq qilingan, lekin rus tilshunosi A.S.Gerd tomonidan ilmiy termin sifatida foydalanish taklif qilindi. Olimning fikricha, regiolekt yagona (juda keng hudud bo'lsa ham) hududda ishlaydigan til iboralarini birlashtirgan va jamiyatda og'zaki muloqot vazifasini

<sup>2</sup> O'sha manba, bet, 32-36.

<sup>3</sup> Tuaille G. Les régionalismes du français parlé à Vourey, village dauphinois (Matériaux pour l'étude des régionalismes du français). P.: Klicksieck, 1983. Vol.I. 383 p

<sup>4</sup> Brun A. Parlers régionaux. France dialectale e unité française. P.-Toulouse: Didier, 1946, 157 p.

<sup>5</sup> Odilov Y. Tillarning sotsiolingvistik tasnifi. /Jadid ma'rifatparvarlarining o'zbek adabiy tili rivojidadagi o'rni. – Toshkent, 2024. – B.120.



bajaradigan aralash idioma (Idiom–muayyan hududdagi mahalliy aholi qo‘llaydigan til ko‘rinishi)dir. Regiolekt og‘zaki nutqning o‘ziga xos shakli bo‘lib, unda ko‘pgina dialektning arxaik xususiyatlari uchramaydi, yangi xususiyatlar bilan shakllangan bo‘ladi. Bu bir tomondan hali adabiy til maqomiga ko‘tarilgan shakl bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ko‘plab o‘zgaruvchan xususiyatlar mavjudligi sababli u shahar xalq tiliga to‘liq mos kelmaydi.<sup>6</sup> Bundan anglashiladiki, regiolekt oddiy so‘zlashuv va adabiy til o‘rtasidagi yuzaga keladigan til. Oddiy so‘zlashuv tili aholining kundalik ehtiyojlari uchun og‘zaki shaklda qo‘llanadi. Regiolekt ham aholining og‘zaki nutqida qo‘llanadi. Ammo oddiy so‘zlashuv tili jamiyatning barcha a‘zolari uchun tushunarli bo‘lsa, regiolektni esa ma‘lum bir hudud aholisining ziyoli qismi uchun tushunarli bo‘lishi bilan farq qiladi. Regiolekt me‘yorlashtirilmaganligi, yozma shaklga ega emasligi, jamiyatning barcha a‘zolari uchun tushunarli bo‘lmasligi kabi xususiyatlar bilan adabiy tildan ajralib turadi va so‘zlashuv tiliga yaqin turadi.

V.I.Belikov, L.P.Krisinlarning “Sotsiolingvistika” o‘quv qo‘llanmasida regiolekt hududiy dialektdan nisbatan katta hududda keng tarqalganligi va geografik jihatdan yaqin shaharlar aholisining o‘ziga xos adabiy til shakllari to‘plami ekanligi bilan farqlangan<sup>7</sup>. Ilk bor bu atamani rus tilshunosligida V.I.Trubinskiy “Hozirgi rus regiolekti”<sup>8</sup> asarida qo‘llagan. Keyinchalik regiolekt atamasi E.A.Oglezneva, L.Gruzberg, N.V.Xorosheva asarlarida qo‘llanishi bilan ommalashib bordi.

T.V.Jerebilo esa “Bugungi kunda regiolekt atamasi mahalliy dialektlar va xalq tilining ta’siri seziladigan o‘rta va kichik shaharlar aholisining nutqini bildiradi. Regiolektning asosiy so‘zlashuvchilari mahalliy shahar ziyolilari, ma‘muriy muassasa xodimlari ekanligi bilan ajralib turadi. Regiolekt birliklari ma‘lum bir mintaqada keng tarqalgan leksemalardir”<sup>9</sup>, deb izohlaydi.

T.A.Kadolo regiolektni ma‘lum bir hududning og‘zaki muloqotida qo‘llanadigan, adabiy tilning izohli lug‘atlarida qayd etilmagan, mahalliy va oddiy so‘zlashuv tilida uchraydigan so‘zlar<sup>10</sup>, deb ta’riflaydi.

S.Zvarikina regiolektga – “ma‘lum bir mintaqada aholisi tomonidan asosan og‘zaki muloqotda qo‘llanadigan, shuningdek lingvomadaniyatshunoslikka oid lug‘atlarda, publisistik adabiyotlarda uchraydigan leksik-frazeologik birliklardir”, deb izohlaydi. Regiolekt paydo bo‘lish sababini esa quyidacha ifodalaydi: muayyan ijtimoiy omillar sababli turli sheva vakillarining bir hududda istiqomat qilishi muloqotdagi

<sup>6</sup> Герд А.С. Введение в этнолингвистику: курс лекций и хрестоматия / А.С. Герд. – СПб.: Изд-во С.-Петербур. ун-та, 2001. – 488 с.

<sup>7</sup> Беликов В.И. Крысин Л.П. Социоллингвистика. – Москва, 2001. – С.164.

<sup>8</sup> Трубинский В.И. Современные русские региолекты: приметы становления / В.И. Трубинский // Псковские говоры и их окружение: Межвуз. сб. науч. тр. – Псков: Псков. гос. пед. ин-т, 1991. – С. 156-162.

<sup>9</sup> Жеребило, Т.В. Региолект // Т.В. Жеребило. Словарь лингвистических терминов. – Назрань: Пилигрим, 2010. – С. 300.

<sup>10</sup> Кадола, Т.А. Региональная лексика как проявление поликультурности / Т.А. Кадола // Язык и культура. – 2011. – № 2 (14). – С. 22–28.

tushunmovchilikni yuzaga keltiradi. Bunday ijtimoiy vaziyat turli sheva vakillarini adabiy tilda so‘zlashishini taqazo qiladi. Ammo turli sheva vakillari muloqot jarayonida adabiy tilda ham, shevada ham mavjud bo‘lgan so‘zlarni muloqot jarayonida qo‘llaydi. Og‘zaki muloqotning bu jihati regiolektni paydo qiladi<sup>11</sup>. Demak, regiolektda so‘zlashuvchilar nutqida dialekt va adabiy tilga xos birliklar ham uchraydi. Regiolekt atamasi sotsiolingvistikada nisbatan yangi termin bo‘lganligi sababli, regiolektga oid mulohazalar turlichaligi kuzatiladi.

Regiolektda so‘zlashuvchilar nutqida dialekt va adabiy tilga xos birliklar ham uchraydi. Masalan, Toshkent shahri aholisining ziyoli qatlami rasmiy va norasmiy muloqot jarayonida qo‘llaydigan tilni regiolekt sifatida keltirishimiz mumkin. Toshkent shahriga kelgan viloyat vakili ham adabiy tilga yaqin muloqot qiladi. Ammo muloqot jarayonida so‘zlarni shevaga xos talaffuz qilishi kuzatiladi. Muloqotning bu jihati regiolekt hisoblanmaydi. Chunki regiolekt shahar aholisining muloqot jarayonida adabiy til va sheva oralig‘idagi til ekanligi bilan ifodalanadi.

O‘zbek tilshunosi Y.Odilovning “Sotsiolingvistika terminlarining izohli lug‘ati”da regiolekt so‘zlovchilarning miqdoriga ko‘ra, dialekt va adabiy tilning o‘rtasida turadi, degan izohga ko‘ra Toshkent shahri aholisining regiolekt so‘zlashuvchilarining miqdoriga nisbatan ham misol bo‘la oladi.

Xullas, regiolekt termini adabiy til va sheva oralig‘ida yuzaga kelgan til ko‘rinishiga nisbatan qo‘llanadi. Regiolektdan shahar aholisining ziyoli qatlami va muassasa xodimlari asosan og‘zaki muloqotda foydalanadi. Regiolekt shahar aholining quyi qatlam vakillari nutqiga xos emas.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Brun A. *Parlers régionaux. France dialectale e unité française*. P.-Toulouse: Didier, 1946, 157 p.
2. Беликов В.И. Крысин Л.П. *Социалингвистика*. – Москва, 2001. – С.164.
3. Хорошева, Н.В. Региолект как промежуточный идиом во французском и русском языках / Н.В. Хорошева// *Вестник Пермского университета. Российская и зарубежная филология*. – 2011. – Вып. 3 (15). – С. 31.
4. Tuaille G. *Les régionalismes du français parlé à Vourey, village dauphinois (Matériaux pour l'étude des régionalismes du français)*. P.: Klicksieck, 1983. Vol.I. 383 p
5. Odilov Y. *Tillarning sotsiolingvistik tasnifi. /Jadid ma'rifatparvarlarining o'zbek adabiy tili rivojidadagi o'rni*. – Toshkent, 2024. – B.120
6. Герд А.С. *Введение в этнолингвистику: курс лекций и хрестоматия* / А.С. Герд. – СПб.: Изд-во С.-Петербур. ун-та, 2001. – 488 с.

<sup>11</sup> Зварыкина, И.С. К вопросу о соотношении диалектного и регионального в русском языке (на примере лексики Астраханского края) / И.С. Зварыкина // *Гуманитарные исследования*. – 2013. – № 2 (46). – С. 30-36.

7. Трубинский В.И. Современные русские региолекты: приметы становления / В.И. Трубинский // Псковские говоры и их окружение: Межвуз. сб. науч. тр. – Псков: Псков. гос. пед. ин-т, 1991. – С. 156-162.
8. Жеребило, Т.В. Региолект // Т.В. Жеребило. Словарь лингвистических терминов. – Назрань: Пилигрим, 2010. – С. 300.
9. Кадоло, Т.А. Региональная лексика как проявление поликультурности / Т.А. Кадоло // Язык и культура. – 2011. – № 2 (14). – С. 22–28.
10. Зварыкина, И.С. К вопросу о соотношении диалектного и регионального в русском языке (на примере лексики Астраханского края) / И.С. Зварыкина // Гуманитарные исследования. – 2013. – № 2 (46). – С. 30-36.

